

ALISHER NAVOIY IJODIDA YUSUF ALAYHISSALOM SIYMOSSINING BADIY TALQINI

Muratova Aziza Kamilovna,

Xalqaro Nordik universiteti

Pedagogika kafedrasi katta o'qituvchisi

azizamuratova3141@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning ijodida Yusuf alayhissalom siymosining badiiy talqini o'rganiladi. Yusuf payg'ambar Islom olamida sabr, sadoqat va go'zallikning oliy timsoli sifatida Qur'oni Karimda ta'riflanadi va Navoiy asarlarida ham bu obraz chuqur ma'naviy mazmun bilan boyitilgan. Maqolada Yusufning go'zallik va poklik ramzi sifatida tasviri, Navoiy ijodida diniy siymolarni badiiy uslubda yuksak ifodalanishi tahlil qilinadi. Maqola davomida Yusuf siymosining Navoiy ijodidagi o'rni va ahamiyati misollar bilan ochib beriladi.

Kalit so'zlar. Navoiy, Yusuf alayhissalom, "Tarixi anbiyo va hukamo", badiiy talqin, ma'naviy poklik, sharq adabiyoti.

ARTISTIC INTERPRETATION OF YUSUF ALAYHISSALAM IN THE CREATION OF ALISHER NAVAI

Annotation

In this article, the artistic interpretation of the image of Yusuf alayhissalam in the work of Alisher Navoi is studied. Prophet Yusuf is described in the Holy Qur'an as the supreme symbol of patience, loyalty and beauty in the Islamic world, and this image is enriched with deep spiritual content in the works of Navai. The article analyzes the image of Yusuf as a symbol of beauty and purity, the high artistic expression of religious figures in Navoi's work. In the course of the article, the role

and importance of the figure of Yusuf in Navoi's work will be revealed with examples.

Keywords. Navoi, Yusuf alayhissalam, “Tarihi anbiyo va hukamo”, artistic interpretation, spiritual purity, oriental literature.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЮСУФА АЛАЙХИСАЛАМА В ТВОРЧЕСТВЕ АЛИШЕРА НАВОИ

Аннотация

В данной статье исследуется художественная интерпретация образа Юсуфа алейхиссалама в творчестве Алишера Навои. Пророк Юсуф описан в Священном Коране как высший символ терпения, верности и красоты в исламском мире, и этот образ обогащен глубоким духовным содержанием в произведениях Навая. В статье анализируется образ Юсуфа как символа красоты и чистоты, высокого художественного выражения религиозных деятелей в творчестве Навои. По ходу статьи на примерах будет раскрыта роль и значение фигуры Юсуфа в творчестве Навои.

Ключевые слова. Навои, Юсуф алейхиссалам, “Тарихи анбиё ва хукамо”, художественная интерпретация, духовная чистота, восточная литература.

Kirish. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida: “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat

qilishi lozim” [8], deya bejiz ta’kidlamadi. Zero, bugungi kunda ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish borasida hal etilishi zarur bo’lgan ko’plab muammo va vazifalar mavjud. Shular qatorida hozirda Alisher Navoiy ijodini keng ko’lamda o’rganish va yosh avlodga to’laligicha yetkazib berish bo’yicha ilmiy sa’y harakatlar hozir ham davom etmoqda. Alisher Navoiy ijodi juda ham serqirradir. Shuning uchun, uning ijodini o’rganish va yosh avlodga Navoiy dahosini tanitish uchun butun umrini baxshida qilgan olim va tadqiqotchilar ham talaygina. Alisher Navoiy ijodida diniy va axloqiy obrazlarning badiiy talqini O’rta asr Sharq adabiyotida o’ziga xos alohida o’rin tutadi. Bu ijodiy talqinlar orasida Yusuf alayhissalom siymosi o’zgacha ahamiyatga ega bo’lib, Navoiy asarlarida ma’naviyat va go’zallik timsoli sifatida chuqur yoritilgan. Yusuf alayhissalom qissasi Qur’oni Karimda “Yusuf” surasi orqali batafsil bayon qilingan bo’lib, bu qissa islom olamida sabr, sadoqat va to’g’rilikning ramzi sifatida qaraladi. Shuning uchun Yusuf alayhissalom siymosi musulmon adabiyotining turli davrlarida ko’plab shoir va adiblar tomonidan badiiy asarlar o’z ifodasini topgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Alisher Navoiy o’zining badiiy ijodida diniy siymolarni badiiy talqin qilishga katta e’tibor bergan. Uning ijodidagi bunday diniy siymolar tasviri nafaqat axloqiy pand-nasihati berish, balki o’quvchiga go’zallik va ma’naviy poklik idealini yetkazish maqsadida qo’llaniladi. Yusuf alayhissalom siymosi esa bu talqinlar ichida eng yuksak darajada namoyon bo’lgan siymolardan biridir. Yusuf alayhissalom siymosi Navoiy asarlarida faqat Qur’on manbalariga asoslanibgina qolmay, go’zallik va ma’naviy tozalikning o’ziga xos ramzi sifatida Navoiyga xos bir shaklda yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan [5]. Yusuf alayhissalom qissasi Qur’onning eng mashhur va chuqur mazmunli qissalaridan biri hisoblanadi. Yusuf alayhissalom siymosi Qur’on manbalarida nafaqat go’zallik ramzi sifatida, balki sabr, imon va poklikning oliy namoyandasi sifatida ifodalanadi. Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va

hukamo” asarida Yusuf a.s. siyimosining ta’rif va tavsifiga keng o‘rin ajratilgan. Navoiy Yusuf siyimosini ifodalashda tashbeh, talmeh kabi bir qancha badiiy san’atlardan foydalangan.

Nega olam o‘rtadi, husnung o‘tidin lam’ai,

Tushmagan bo‘lsa jamoli Yusufi Kan’on aro.

Bilamizki, Yusuf alayhissalom Qur’on, Tavrot va Zabur kabi ilohiy kitoblarda go‘zallik timsoli sifatida ta’riflanadi. “Tafsiri Jalolayn”da keltirilishicha, Yusuf alayhissalomga dunyodagi husnning yarmi berilgan [3]. Navoiy ham ushbu misralar orqali Yusuf a.s. jamoli olamni o‘rtaydigan darajada go‘zal ekanligiga badiiy ishora qilib o‘tgan. Yusuf alayhissalom siyimosidan foydalanish orqali Navoiy ishqiy iztirob va go‘zallikning ruhiyatga bo‘lgan ta’sirini chuqurroq ifodalab, Yusuf a.s. husnining o‘t kabi olamni o‘rtashi mumkinligini badiiy tasvir ostiga olgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Alisher Navoiy ijodida Yusuf alayhissalom siyimosi badiiy talqinning eng nozik va chuqur misollaridan biri bo‘lib, bu siymo Navoiy yaratgan diniy siymolar qatorida alohida o‘rin tutadi. Yusufning hayoti va ruhiy-ma’naviy fazilatlari Navoiyning asarlarida, xususan, uning “Xamsa”si va boshqa dostonlarida badiiy tarzda shakllanib, go‘zallik, sabr va poklik timsoli sifatida aks etgan. Navoiy o‘zining “Xamsa” asarida husn-u malohatda tengsiz bo‘lgan obrazlarini va ular oshiqlarining boshlariga tushgan kulfatlarni ta’riflashda Yusuf a.s. siyimosiga ishora qilishi ham bejiz emas, albatta. Oshiq yori ba’zan Yusuf bilan tenglashtiriladi, ba’zan esa yordan ham ustun qo‘yiladi. Bu esa sharq adabiyotiga xos bo‘lgan holat [2].

Navoiyning g‘azallarida biror qahramonning ruhiy holati yoki unga berilayotgan nisbat aytilayotganda ko‘pincha talmeh badiiy san’ati qo‘llanilgan holda Yusuf a.s. tilga olinadi va biz bilvosita asar qahramoni orqali Yusuf a.s.ning siyimosi tasvirlanishiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

“Orazing naqshiki chiqmas tiyra ko‘nglumdin dame,

Qildilar go‘yoki Yusuf suvratin zindonda naqsh”

Ushbu baytda ham asar qahramoni haqida so‘z keta turib talmeh san‘ati qo‘llanilishiga guvoh bo‘lmoqdamiz, ya‘ni Navoiy o‘z ichki holatini tasvirlash davomida Yusuf a.s. siymosiga to‘xtalib o‘tmoqda. Ilohiy kitoblarga ko‘ra Yusuf payg‘ambar zindonda o‘tirganida ham uning go‘zalligi haqida hamisha gapirilgan va u zindonda ham go‘zallik timsoli bo‘lib qolgan. Shoir bu yerda Yusufning tasviri bilan yor go‘zalligini qiyoslaydi. Zindon Yusuf uchun qanday qismat joyi bo‘lgan bo‘lsa, shoirning qalbi ham shunday qayg‘u va iztirob bilan to‘lgan joy. Lekin shunga qaramay, bu qalbdagi Yusuf jamoli kabi go‘zallikka ega yorning husni abadiy naqsh bo‘lib muhrlangan, bu esa Yusufning chiroyi qorong‘u zindonga naqshlangani kabidir, deya tasvirlaydi Navoiy.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Yusuf alayhissalomning Navoiy ijodida shakllanishi bir necha omillar va qirralar bilan bog‘liq. U asosan diniy qahramon sifatida Qur‘ondagi voqealardan ilhoomlanib tasvirlangan bo‘lsa-da, shoir Yusuf siymosini zamon va makondan tashqari, abadiy ma‘naviy fazilatlar egasi sifatida ham ifodalaydi. Bu obrazning shakllanishida Yusuf alayhissalomning ruhiy sabr-toqatga boy shaxsiyati, go‘zallik va poklikka intilishlari muhim o‘rin tutadi.

Qur‘onning “Yusuf” surasidagi 96-oyatda shunday deb yozilgan: “Bas, xushxabarchi kelib, uni (ko‘ylakni Ya‘qubning) yuziga tashlagach, u ko‘radigan bo‘lib qoldi”. Sizlarga men Allohning (mehribonligi haqida) sizlar bilmaydigan narsalarni bilurman, demaganmidim”, – dedi u [3]. Navoiyning quyidagi baytida ushbu holatga ishora qilingan holda Yusuf a.s. siymosiga murojaat etilgan:

Ko‘nglagingdinkim topar jon dam-badam Yusuf isi,

Ey azizim, men ham ul ko‘nglak aro bir tormen.

Baytda Ya‘qub alayhissalomga o‘g‘li Yusuf ko‘ylagi olib kelinganda ko‘zlariga nur qaytgan holatga ishora qilingan bo‘lib, ko‘ylakdagi Yusufning hidi Ya‘qub

alayhissalomning ko‘zlari yana ko‘rishiga sabab bo‘lgan. Shoir ham ayni shu kabi yorga murojaat qilib uning ko‘ylagida Yusufning hidi borligini ifoda etmoqda. Albatta, bu yerda ishq qalbga Yusufning hidi bilan birga go‘zallikni olib kelgan bo‘lsa-da, shoir bu go‘zallik ichida iztirob tortayotganini botinda ifodalaydi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, Yusuf alayhissalomning Navoiy ijodida shakllanishi badiiy, axloqiy va diniy jihatdan chuqur mazmun kasb etadi. Shoir Yusuf siymosini Qur‘on oyatlari asosida talqin qilish bilan birga, uni ma‘naviy poklik va go‘zallik timsoli sifatida kengroq falsafiy va axloqiy qirralar bilan boyitadi. Yusuf alayhissalomning hayoti, uning axloqiy pokligi, sabri va sadoqati Navoiy ijodining badiiy-estetik idealiga mos keladigan siymo sifatida shakllangan bo‘lib, bu siymo orqali shoir insoniy fazilatlar va ma‘naviyat haqida chuqur mulohazalar bildiradi. Yusufning tashqi ko‘rinishi uning ichki dunyosining, ya‘ni axloqiy pokligi, halolligi va Allohga bo‘lgan chuqur e‘tiqodining tashqi belgisi sifatida ko‘rsatiladi. Bu esa, Navoiy ijodida Yusuf alayhissalom siymosining nafaqat Qur‘on oyatlariga, balki umumiy badiiy-estetik qarashlarga asoslangan holda shakllanganini anglatadi.

ADABIYOTLAR

1. Muratova, A. K. (2023). “MAORIF VA O‘QUTG‘UCHI” JURNALIDA ZAMONDOSH ADIBLAR IJODINING TALQINI. GOLDEN BRAIN, 1(9), 115-121.
2. Muratova, A. K. (2022). Muratova Aziza Kamilovna Mirzo Ulug‘bek. RESEARCH AND EDUCATION, 1(1), 193-200.
3. Shomurodova, S. (2024). Zamonaviy o‘zbek shoirlarining devonlarida vazn masalasi (aruz vazni bo‘yicha). Nordic_Press, 1(0001).
4. Shomurodova, S. (2024). Erkin Vohidov qasidalarining maktab ta‘limidagi ahamiyati: Erkin Vohidov qasidalarining maktab ta‘limidagi ahamiyati. Nordic_Press, 1(0001).

5. Шомуродова, С. Х. (2020). ЭРКИН ВОҲИДОВ ҒАЗАЛЛАРИДА ТАЛМЕҲ САНЪАТИНИНГ ЎРНИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(5).

6. Vokhidova, N. K., Khalikova, Z. M., Islamova, F. S., & Abdulkhayeva, M. B. (2024). Organization Of The Educational Process In Primary Education With The Participation Of Artificial Intelligence. Educational Administration: Theory and Practice, 30(4), 1906-1909.

7. Obidjon o'g'li, Y. O. (2024). MATN TAHLILIDA TERMINOLOGIYA MASALASI. «CONTEMPORARY TECHNOLOGIES OF COMPUTATIONAL LINGUISTICS», 2(22.04), 79-82.

8. Obidjon o'g'li, Y. O., & Xolmirzayevna, R. Z. (2023, April). KORPUS–TABIIY TILLARNING MILLIY XUSUSIYATINI SAQLAB QOLISHDA MUHIM INSTRUMENT. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS (Vol. 1, No. 14.04, pp. 61-64).